

PROGRESS: GLOBAL TADQIQOTLAR



+998200161268

@Tafakkur_academy

www.tafakkurjournals.uz

JANUBIY OROL BO'YI ANTIK DAVR AHOLISINING ANTROPOLOGIK QIYOFASI: POPULYATSIYALAR INTEGRATSIYASI VA DIFFERENTIALLASHUVI

Jumag'ulova Maryash Qarshig'a qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tarix fakulteti Arxeologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

e.mail: maryashjumagulova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Janubiy Orolbo'yi aholisining antik davrdagi antropologik tarkibi va demografik xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqotda aholining biologik uzviyligi, migratsiya jarayonlarining mahalliy aholiga ta'siri hamda turli davrlardagi o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, erkaklar va ayollar o'rtasidagi o'lim yoshi dinamikasi hamda jamiyatning "patriarxallashuvi" masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Janubiy Orolbo'yi, antropologiya, paleodemografiya, yevropoid, mongoloid komponenti, migratsiya, o'lim yoshi, Xorazm, Kuyusoy madaniyati.*

Аннотация. В данной статье освещаются антропологический состав и демографические характеристики населения Южного Приаралья в античный период. В исследовании анализируются биологическая преемственность населения, влияние миграционных процессов на местных жителей и показатели средней продолжительности жизни в различные периоды. Также уделяется внимание динамике возраста смертности среди мужчин и женщин, а также вопросам «патриархализации» общества.

Ключевые слова: *Южное Приаралье, антропология, палеodemография, европеоид, монголоидный компонент, миграция, возраст смертности, Хорезм, Куюсайская культура.*

Abstract. This article examines the anthropological composition and demographic characteristics of the population of the South Aral Sea region during the ancient period. The study analyzes the biological continuity of the population, the impact of migration processes on the local inhabitants, and average life expectancy indicators across different periods. Furthermore, attention is paid to the dynamics of mortality age between men and women, as well as the issues of the "patriarchalization" of society.

Keywords: *South Aral Sea region, anthropology, paleodemography, Caucasoid, Mongoloid component, migration, age of mortality, Khorezm, Kuyusoy culture.*

Kirish. Antik davr (mil. avv. I ming yillik o'rtalari – milodiy I ming yillik o'rtalari) O'rta Osiyo, xususan, Janubiy Orolbo'yi antropologiyasi uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda hudud o'troq dehqonchilik sivilizatsiyasi va ko'chmanchi dasht xalqlari o'rtasidagi asosiy aloqa nuqtasiga aylandi. Antropologik

ma'lumotlar mintaqa xalqlarining jismoniy tipi qanday shakllanganini, migratsiya oqimlarining ta'sirini va mahalliy genofondning barqarorligini tushunishga imkon beradi.[Xodjayov 2011]

Tadqiqotda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi materiallari asosiy manba sifatida foydalanildi. Tadqiqotlar natijasida olingan kranio-osteologik seriyalar (bosh suyagi o'lchovlari) R. Martin metodikasi bo'yicha tahlil qilingan. Asosiy e'tibor kalla suyagi ko'rsatkichi (kraniometriya), yuzning kengligi va balandligi, burun suyaklarining chiqib turish darajasi kabi diagnostik belgilarga qaratilgan [Ginzburg, Trofimova, 1972].

Ushbu tadqiqotning manba bazasini ko'p yillar davomida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (XAEE) tomonidan Janubiy Orolbo'yi yodgorliklarida o'tkazilgan qazishmalar natijasida to'plangan paleoantropologik materiallar tashkil etadi. Tadqiqot obyekti sifatida mil.avv. I ming yillik va milodiy I ming yillikka oid Tumek-Kichidjik, Tuzgir, hamda Sirdaryoning quyi oqimidagi Jetiasar madaniyati yodgorliklaridan topilgan skelet qoldiqlari olindi.

Tadqiqot metodikasi sifatida kranio-osteologik tahlil usuli tanlangan bo'lib, o'lchov ishlari R. Martinning klassik antropologik metodikasi asosida amalga oshirildi [Ginzburg, Trofimova, 1972]. Kalla suyagining morfologik xususiyatlarini aniqlashda kraniometrik ko'rsatkichlar — yuz skeletining gorizontal profillanishi, burun suyaklarining chiqib turish burchagi va fassial indekslar asosiy diagnostik mezon sifatida qo'llanildi.

Asosiy qism. *Kuyusoy madaniyati va uning kelib chiqishi.* Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida Amudaryoning **Sariqamishbo'y** deltasida o'ziga xos Kuyusoy madaniyati shakllandi [Вайнберг Б.И., "Памятники куюсайской культуры", 1979]. Tumek-Kichidjik qabristonidan topilgan suyak qoldiqlari bu aholining aniq yevropoid tipga mansubligini ko'rsatdi; ushbu aholi uchun dolixokraniya va nisbatan keng yuz xosdir [Яблонский Л.Т., "Саки Южного Приаралья", 1996].

Ushbu aholi uchun dolixokraniya (uzun kalla suyagi) va **o'rtacha profilirlangan tor yuz** xosdir.

T.A. Trofimova ushbu tipni Volgabo'yi qadimiy aholisi bilan bog'laydi. B.I. Vaynbergning fikricha, kuyusoyliklar G'arbiy Xorasandan ko'chib kelgan guruhlar bo'lishi mumkin [Vaynberg, 1999].

Milodiy eraning boshlarida Janubiy Orolbo'yi aholisida kalla suyagining shakli o'zgara boshladi. Tumek-Kichidjik va Tuzgir qabristonlari materiallari dolixokraniyadan braxikranisiyaga (kalla suyagining dumaloqlashishi) o'tish jarayonini ko'rsatadi.

Bu jarayon mahalliy o'troq aholining dashtdan kelgan alan va sarmat qabilalari bilan aralashuvi natijasida yuzaga kelgan [Yablonskiy, 1996]. Natijada hozirgi o'zbek va tojik xalqlari uchun xos bo'lgan "Ikki daryo oralig'i irqi" (Mavaraunnahr tipi) poydevori yaratildi.

Sharqiy Orolbo'yi va Jetiasar madaniyati. Jetiasar madaniyati (Sirdaryoning quyi oqimi) aholisi Janubiy Orolbo'yi antropologiyasida alohida o'rin tutadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu aholi juda harakatchan bo'lib, milodiy III–IV asrlarda janubiy yo'nalishda – Baqtriya va Sug'd tomonga ko'chgan [Levina, 1996]. Bu migratsiya mintaqadagi o'troq aholi genofondiga yangi yevropoid va qisman mongoloid elementlarni olib kirdi [Xodjayov, 1987].

O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar davri aholisi tarixini o'rganishda arxeologik yodgorliklardan topilgan paleoantropologik materiallar beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu topilmalar nafaqat ajdodlarimizning tashqi qiyofasini tiklash, balki ularning turmush tarzi, ijtimoiy tuzilishi va biologik rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, skelet qoldiqlari asosida o'tkazilgan paleodemografik tahlillar turli tarixiy davrlarda aholining yosh va jins tarkibi, o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichlari hamda o'lim darajasining dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi.

Tarixiy antropologiyada aholining jinsiy va yosh ko'rsatkichlari jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, sanitariya holati va oilaviy munosabatlarning bevosita in'ikosi hisoblanadi. Quyida O'rta Osiyo aholisining eneolit davridan boshlab hozirgi zamonga yaqin davrlargacha bo'lgan asosiy demografik ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz:

Erkaklarning o'rtacha o'lim yoshi barcha ko'rib chiqilgan tarixiy davrlar davomida o'sish tendensiyasini ko'rsatadi. Masalan, eneolit va bronza davrida bu ko'rsatkichning o'rtacha miqdori 37,0 yoshni, antik davrda 38,5 yoshni, o'rta asrlarda 38,4 yoshni, hozirgi zamonga yaqin davrda esa 40,9 yoshni tashkil etgan. Ayollarda bu ko'rsatkich 34,9 yosh bo'lib, antik davrda 33,4 yoshgacha kamayadi, o'rta asrlarda 33,9 yoshgacha, hozirgi zamonga yaqin davrda esa 36,0 yoshgacha ortadi. Turli davrlarda jinslarning foiz ko'rsatkichidagi nisbati taqsimlanishi qiziqarlidir. Eneolit va bronza davrlari ajralib turadi, bunda deyarli barcha seriyalarda son jihatidan ayollar ustunlik qiladi. Jinslarning bunday nisbati tinch o'troq aholi uchun xarakterli deb tan olinishi mumkin, chunki erkaklar uylaridan uzoqda nobud bo'lish ehtimoli ko'proq edi va oilaviy qabristonlarda dafn etilmasligi mumkin edi. Shu bilan birga, eng qadimgi davrlar uchun erta nikohlar xarakterli emasligini aytish joiz. Qizlarning oilada ko'proq qolishi uchun iqtisodiy sabablar ham bo'lgan bo'lishi mumkin. [Xodjayov, 1987]

Antik davrda vaziyat ancha o'zgaradi. Qabrlarda erkaklar o'rtacha 10% ga ko'payadi, ayollar soni esa mos ravishda kamayadi. Bu, bizning fikrimizcha, barvaqt turmush qurish an'anasi va ushbu an'anaga muvofiq yoshlardagi ayollar o'limining ortishi bilan tushuntirilishi mumkin. O'rta asrlarda qabrlardagi jinslar o'rtasidagi nomutanosiblik (disproporsiya) yanada kuchaydi. Balki, bu yerda o'sha vaqtda ayrim xalqlarda mavjud bo'lgan dafn marosimlarining qandaydir o'ziga xosliklari rol o'ynagan bo'lishi mumkin. Hozirgi zamonga yaqin yodgorliklar orasida, antik davrdagidek erkaklarning ko'pchiligiga qaramasdan, dafn komplekslaridagi jinslar nisbatini tenglashtirish tendensiyasini ko'rish mumkin. Bunday xulosaga kelish uchun Samarqand viloyatining uchta yodgorligidan olingan ma'lumotlar asos bo'lib xizmat qiladi, ular son jihatidan eng ko'p va qishloq aholisining doimiy guruhlarini tavsiflaydi [Xodjayov, 1987].

Ushbu xronologik kesimlarda 50 yoshdan oshgan shaxslarning foizi har xil jinslarda turlicha taqsimlanish prinsiplarini topadi. Masalan, erkaklarda bu ko'rsatkich eneolit va bronza davrlarida minimal bo'lsa-da (16,4%), antik davrda ortgan (20,6%), o'rta asrlarda bir oz pasaygan (18,6%). Uning eng yuqori qiymatlari hozirgi zamonga yaqin seriyalarda (34,5%) kuzatiladi. Ayollarda bu ko'rsatkich eneolit va bronza davrida uncha ko'p emas (14,1%), antik davrda juda oz ko'paygan (15,3%) va o'rta asrlarda minimal ko'rsatkichlargacha pasaygan (11,6%). Eng yuqori ko'rsatkichlar, erkaklardagidek, hozirgi zamonga yaqin seriyalarda kuzatiladi (21,0%). Biroq, har xil tarixiy davrlarda katta yoshdagi guruhda erkaklar va ayollarning ushbu belgi bo'yicha nisbatini solishtirish shuni ko'rsatdiki, eneolit va bronza davri seriyalarida katta yoshdagi erkaklar ayollarga nisbatan uncha ko'p emas (2,3 foizga). Antik davrda bu farq 5,3% ni, o'rta asrlarda 7,1% ni, hozirgi davrga yaqin seriyalar orasida esa 13,5% ni tashkil etadi. Topilgan tendensiya, ehtimol, jamiyatning davriy "patriarxallashuvi" jarayonining ko'rsatkichi bo'lishi mumkin [Xodjayov, 1987]

Populyatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik (Jadval-1)

Madaniy guruh	Asosiy yodgorliklar	Antropologik tip	Kalla suyagi ko'rsatkichi
Kuyusoy	Tumek-Kichidjik	Qadimgi yevropoid	Dolixokraniya [Trofimova, 1959]
O'troq Xorazm	Kalali-qir 1-2	Sharqiy-O'rta yer dengizi	Mezokraniya [Yablonskiy, 1991]
Sarmat-alan	Tuzgir	Aralash (Mavaraunnahr)	Braxikraniya [Ginzburg, 1972]
Jetiasar	Oltinasar	Orolbo'yi tipi	Mezo-braxikraniya [Mednikova, 2022]

Xulosa. Janubiy Orolbo'yi mintaqasining qadimgi aholisi antropologiyasini tadqiq etish, avvalo, hududdagi aholi qatlamlarining ko'p asrlik **biologik uzviyligini** ilmiy jihatdan asoslab beradi. Bu shuni anglatadiki, mintqa aholisining genetik asosi va jismoniy qiyofasi ming yillar davomida uzilmasdan, bir turg'unlikda rivojlanib kelgan. Antik davrda kuzatilgan turli xil yirik migratsion jarayonlar va aholi ko'chishlari Janubiy Orolbo'yi hududidagi tub joyli qatlamni butunlay siqib chiqarmagan yoki ularni boshqa etnik guruhlar bilan almashtirib yubormagan. Aksincha, tashqaridan kelgan yangi antropologik guruhlar mahalliy aholi bilan aralashib, mavjud genofondni yangi belgilar bilan boyitgan va o'ziga xos populyatsiyalar sintezini yuzaga keltirgan.

Ushbu jarayonning **o'troq asosi** tahlil qilinganda, Xorazm vohasining tub aholisi o'zining fundamental xususiyatlariga ko'ra **yevropoid** tipida qolganini

ko‘rish mumkin. Biroq, dasht va cho‘l mintaqalaridan kelgan ko‘chmanchi qabilalar bilan uzoq muddatli madaniy va biologik muloqotlar natijasida aholining tashqi morfologik ko‘rinishida muayyan o‘zgarishlar yuz bergan. Xususan, yuz suyaklarining tuzilishi va kalla suyagi shaklining (kranimetrik ko‘rsatkichlar) o‘zgarishi aynan shu ko‘chmanchi guruhlarining ta’siri sifatida baholanadi [Ходжаев Т.К.” Антропология народов Средней Азии.”,2011]

Shu bilan birga, mintaqada **mongoloid komponentining** ishtiroki masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Arxeologik va antropologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, antik davrda mongoloid belgilarining ulushi nihoyatda past bo‘lgan va asosan Sirdaryoning quyi oqimi bo‘yida yashagan guruhlarda kam miqdorda uchragan [Трофимова, 1963]. Bu holat o‘sha davrda sharqiy oqimlarning Janubiy Orolbo‘yi markaziy hududlariga ta’siri hali cheklangan bo‘lganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Orolbo‘yining antik davr antropologiyasi bugungi kundagi mintaq xalqlarining qiyofasini belgilab bergan asosiy va hal qiluvchi jarayonlar markazi hisoblanadi. Aynan shu tarixiy bosqichda o‘troq dehqonchilik madaniyatiga mansub aholi hamda chorvador ko‘chmanchi guruhlarining o‘zaro murakkab biologik aloqalari natijasida zamonaviy antropologik tiplarning poydevori shakllandi. Bu davrdagi etno-biologik jarayonlarda Janubiy Orolbo‘yi aholisining janubiy hududlar, xususan **Xorasan**, hamda shimoliy yo‘nalishdagi **Volgabo‘yi** va **Oltoy** populyatsiyalari bilan faol aloqalari mintaqadagi antropologik manzaraning rang-barang bo‘lishida hal qiluvchi o‘rin tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Вайнберг Б.И.** Этногеография Турана в древности. — М., 1999.
2. **Гинзбург В.В., Трофимова Т.А.** Палеоантропология Средней Азии. — М.: Наука, 1972.
3. **Левина Л.М.** Этнокультурная история Восточного Приаралья. — М., 1996.
4. **Медникова М.Б.** К антропологии населения джетыясарской культуры // Вестник антропологии, 2022.
5. **Трофимова Т.А.** Древнее население Хорезма по данным антропологии. — М., 1959.
6. **Ходжайов Т.К.** Антропология народов Средней Азии. — Ташкент: Фан, 1987.
7. **Ходжайов Т.К.** Этническая антропология Узбекистана. — Ташкент: Фан, 2011.
8. **Яблонский Л.Т.** Антропология античного и средневекового населения Южного Приаралья. — М., 1996.